

TA'LIMDA GENDER TENGLIGI MASALALARI TAHLILI

Teshayeva Yulduz hakim qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim sohasidagi ishtirokini oshirishda amalga oshirilayotgan hamda ayollarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, bu borada O'zbekistonning va jahondagi boshqa rivojlangan davlatlar tajribasining tahlili olib borilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ta'limdagi stereotiplar, o'rta bosqichdagi ta'lim, oliy ta'lim, ayol olimalar.

АНАЛИЗ ВОПРОСОВ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ОБРАЗОВАНИИ

Тешаева Юлдуз хахим кизи

Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация: в статье анализируются реформы, проведенные в Узбекистане за годы независимости по расширению участия женщин в образовании и поддержке женщин, а также опыт Узбекистана и других развитых стран в этом направлении.

Ключевые слова: начальное образование, стереотипы в образовании, среднее образование, высшее образование, женщины-ученые.

ANALYSIS OF GENDER EQUALITY ISSUES IN EDUCATION

Teshayeva Yulduz hakim kizi

Bukhara State University, basic doctoral student

Abstract: this article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence to increase the participation of women in

education and support for women, as well as the experience of Uzbekistan and other developed countries in this regard.

Keywords: *primary education, stereotypes in education, secondary education, higher education, female scientists.*

Ta’limda gender tengligi — bu ta’lim sohasida erkak va ayol o’rtasidagi imkoniyatlar, huquqlar va resurslarga teng kirish imkoniyatidir. Gender tengligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o’ynaydi, chunki ta’lim — har bir insonning shaxsiy va professional o’sishi uchun asosiy poydevor. O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda ta’limda gender tengligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, dunyoning turli mintaqalarida, xususan Yevropa va Osiyo mamlakatlarida ham gender tengligi masalalari turlicha darajada hal etilmoqda.¹ Ushbu maqolada O‘zbekiston, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi ta’lim tizimida gender tengligi holati, mavjud muammolar, sabablar va yechimlar keng qamrovda tahlil qilinadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida qiz va o‘g‘il bolalar soni maktab yoshidagi bolalar orasida nisbatan teng taqsimlangan: o‘quvchilarning taxminan 48,7 foizi qiz bolalar, 51,3 foizi esa o‘g‘il bolalardir. Bu ko‘rsatkichlar maktab ta’limi bosqichida gender tengligi yaqqol mavjudligini bildiradi. Ammo yuqori sinflarga, ayniqsa 10-11 sinflarga kelib, qizlarning ishtirok darajasi asta-sekin pasayadi. Masalan, 11-sinf bitiruvchilari orasida qizlarning ulushi o‘g‘il bolalarnikidan ancha kamroq bo‘lishi ijtimoiy stereotiplar, oilaviy sharoitlar va iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

Maktabgacha ta'lim bosqichida ham qiz va o'g'il bolalar soni deyarli teng: qizlar maktabgacha ta'lim muassasalarida taxminan 48 foizni tashkil qiladi. Biroq, qishloq joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yetishmasligi va iqtisodiy qiyinchiliklar qizlarning bu ta'limga kirishini qiyinlashtiradi. Shu bois, shahar va qishloq hududlari o'rtasida gender tengligi ko'rsatkichlari farq qiladi.

2022-yilda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 milliondan ortib, ulardan 47,8 foizini ayollar tashkil etdi.² Bu ko'rsatkich ayollarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari oshib borayotganini bildiradi. O'zbekiston hukumati oliy ta'limda qizlarning ta'lim olishini rag'batlantirish maqsadida turli moliyaviy yordam va stipendiyalar, shuningdek, kontrakt to'lovlarini qoplash dasturlarini amalga oshirmoqda. Masalan, 2022-yilda 12 300 nafar talaba-qizning kontrakt to'lovlari uchun 68,3 milliard so'm mablag' ajratilgan.

2022-yildan boshlab hattoki magistratura bosqichiga to'lov shartnoma asosida qabul qilingan qizlarning kontrakt pullari davlat budjetidan qoplab berilyapti. Shaxsan men ham ana shunday baxtli talaba qizlardan bittasiman. Yurtboshimiz tomonidan berilayotgan bunday ajoyib imkoniyatlar samarasi o'laroq, so'nggi yillarda magistraturada o'qiydigan qizlarning soni bir necha baravarga ko'paydi. Bundan tashqari doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi. Bu tadbirlarning samarasi o'laroq oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi professorlar orasida xotin-qizlar ulushi 2016-yilda 42% dan, 2024-yilda 48 %ga o'sdi.

² <https://gender.stat.uz>.

Xalq ta'limi tizimida rahbarlik lavozimlarida ko'proq erkaklar faoliyat yuritmoqda. Masalan, maktab direktorlarining taxminan 66 foizi erkaklar bo'lsa-da, o'qituvchilar tarkibida ayollar ustunlik qiladi. So'nggi yillarda erkak o'qituvchilarning soni oshmoqda, bu esa gender muvozanatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ta'limda gender tengligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Skandinaviya davlatlari — Finyandiya, Shvetsiya, Norvegiya — ta'limda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta'minlashda dunyo yetakchilari hisoblanadi. U yerda qizlar maktabda va oliy ta'limda o'g'il bolalardan ko'ra yaxshiroq natijalar ko'rsatadi.³

Yevropada, ayniqsa Germaniya va Italiyada, qizlar ko'proq gumanitar va ijtimoiy fanlarga, o'g'il bolalar esa texnika, muhandislik va tabiiy fanlarga qiziqadi. Bu holat kelajakda ish bozoridagi gender tafovutlariga sabab bo'ladi. Biroq, Yevropa Ittifoqi bu masalani hal qilish uchun maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda, masalan, STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohalarida qizlar ishtirokini rag'batlantirish.

Yevropada gender tengligini ta'minlash uchun ko'plab qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Shu jumladan, ta'limda gender stereotiplarini yo'q qilish, gender asosida diskriminatsiyaga barham berish, shuningdek, pedagogik jarayonda gender masalalariga alohida e'tibor qaratish bo'yicha dasturlar amalga oshiriladi.

³ <https://www.unesco.org/en/gender-equality/education>.

Osiyo mintaqasida ta'limda gender tengligi ko'rsatkichlari mamlakatlarga qarab juda farq qiladi. Masalan, Hindiston va Pokistonda qizlarning maktabda va oliy ta'limda ishtiroki past bo'lib, ko'pincha ijtimoiy an'analar, oilaviy qarorlar va iqtisodiy qiyinchiliklar bunga sabab bo'ladi. Bu davlatlarda qizlarning ta'lim olish darajasini oshirish uchun davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda.

Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan Osiyo davlatlarida ta'limda gender tengligi yuqori darajada ta'minlangan. Singapurda qizlar va o'g'il bolalar o'rtasida o'qishdagi farq deyarli yo'q. Bu davlatlarda ayollar oliy ta'limda faol qatnashadi va ish bozorida ham yuqori lavozimlarga chiqish imkoniga ega.⁴

Ko'plab Osiyo mamlakatlarida ta'limdagi gender farqlari an'anaviy ijtimoiy stereotiplardan kelib chiqadi. Masalan, qizlar ko'pincha uy bekasi bo'lishi kutilgani sababli ta'limga kamroq e'tibor beriladi. Shu sababli, ta'lim siyosatini shakllantirishda madaniyat va ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olish muhim.

Ta'limda gender tengligi butun dunyo uchun muhim va dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekiston so'nggi yillarda gender tengligini ta'minlash yo'lida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Biroq, yuqori sinflardagi qizlarning ishtiroki pastligi, ijtimoiy stereotiplar va qishloq hududlarida ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, Yevropa va rivojlangan Osiyo mamlakatlari gender tengligini ta'minlash borasida o'z tajribalari bilan O'zbekiston uchun yaxshi namuna bo'la oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim sohasida xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratish jamiyatning barqaror va teng rivojlanishining asosidir.

⁴ Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 250 б.

Ayollarning ta'lim olishdagi ishtirokini oshirish nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Ta'lim orqali xotin-qizlar bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab, jamiyatdagi turli rol va vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'ladilar. Shu bois, yurtimizda davlat va jamiyat tomonidan qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, gender stereotiplarini bartaraf etish va adolatli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha doimiy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu nafaqat tenglik tamoyillariga sodiqlik, balki kelajak avlod uchun kuchli poydevor yaratish demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 250 б.
3. Ногаева Айнур Муханбетияровна, Жанна Мергенжановна Шупанова. «Роль женщин в сфере образования, науки и обществе стран Центральной Азии.» (2016). 4. <https://gender.stat.uz>.
5. <https://www.unesco.org/en/gender-equality/education>.
6. <https://www.unicef.org/education/girls-education>.